

SAYFI SAROYI VA UNING “SUHAYL VA GULDURSUN” DOSTONIDA ISHQ MASALASI

Salimova Rayxona Burxon qizi

Guliston davlat universiteti Filologiya tillarini o'qitish

(o'zbek tili) yo'nalishi 2-bosqich talabasi

e-mail: salimovarayxona00@gmail.com

Annotatsiya: *Abdulla Qodiriyning o'zbek nasri rivojiga qo'shgan hissasi, shuningdek, adib asarlarining yaratilishi, nasr taraqqiyoti, shakllanish bosqichlari haqida mulohaza yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *nasr, esse, roman, syujet, kompozitsiya, sujet, hikoya.*

Abstract: *The creation of Abdulla Qadiri's works made a great contribution to the development of Uzbek literature, in particular, its place in Uzbek prose and its development. This article discusses the stages of creation, development, and formation of prose and Abdullah Qadiri's role in it.*

Keywords : *prose, essay, novel, plot, composition, real, story.*

Sayfi Saroyi XIV asrda yashab ijod qilgan. U 1321- yilda tug'ilib, 1396-yilda vafot etgan. U Oltin O'rda davlatining poytaxti – Saroy shahrida yashab, ijod etgani uchun ham “Saroyi” taxallusini qo'llagan. Uning yashab ijod qilgan davri tarixda O'zbekxon o'g'li Tinibek va Jonibeklarning hukmronlik yillariga to'g'ri keladi. Shoir adabiy merosining bizgacha ko'p qismi yetib kelmagan. Adibning ruboiylari, qit'a va g'azallaridan bir nechta, Sa'diy Sheroziyning 1258-yilda yozilgan “Guliston” asarining erkin tarjimasi bo'lmish “Gulistoni bit-turkiy” asari hamda “Suhayl va Guldursun” dostoni yetib kelgan. Bu doston haqida dastlab manbalarda ma'lumot mavjud emas edi. Ammo 1966-1967-yillarda farg'onalik Kamolxon Sultonov degan kishining qo'lida saqlangan qo'lyozma asosida topildi. Mazkur qo'lyozmada Saroyi bilan bir davrda yashagan va ijod qilgan Tug'lixo'ja Xorazmiy, Mavlono Is'hoq Xorazmiy, Mavlono Ahmad Urganjiy kabi iste'dod vakillarining bir nechta g'azallari Sayfi Saroyining ikki bayt, uch qit'asi hamda 82 bayt, 164 misradan iborat “Suhayl va Guldursun” dostoni berilgan. Olimlarning fikricha, “Suhayl va Guldursun” asari hijriy 793-milodiy 1390-1331-yillarda tarjima qilingan.

Uning “Suhayl va Guldursun” dostoni haqida so'z yuritsak. Asarning qisqacha mazmuni quyidagicha: Urganch yurtiga Temur lashkar tortib keladi va shu yurtning shohi To'xtamishxonni mag'lub etadi. Jang manzarasini kitobxon ko'z o'ngida jonli hamda talofatli bo'lganligini gavdalantirish uchun Saroyi quyidagi iboralarni qo'llaydi: “Ko'rib ko'z-ko'r, bo'lib qoldi quloq-kar”, “Qo'zutti jang bilan olamda to'fon, Oqitti suv tekin yer uzra ko'p qon”. Jangda To'xtamishning o'g'li Suhayl asir

olinadi. Muallif ta'rificha, uning husni Yusuf husnidan ham ortiq edi. Yuzining ol rangi olmani mot etadigan, shirin so'zli, agar Shirin ham uni ko'rganida oshiq bo'lar edi. Ammo jabr toshlari tinmasdan boshi uzra yog'ardi. Mana shu yerda muallif folklor asarlarida bo'lgani singari qahramonning tashqi ko'rinishini, ruhiy holatini tasvirlashda mubolag'a san'atidan ham mohirona foydalangan. Suhaylni Temur buyrug'i bilan oyoq va qo'lini zanjirband qilib chohga tashlaydilar. Suhaylni chohga keltirish jarayonida Temur qizi Guldursin mahramlari bilan gul sayriga borayotgan edi. Nogahon Suhaylga ko'zi tushdi va uni sevib qoldi. Shundan keyin u Suhaylning yoniga borish uchun chora izlay boshladi. Oxir posbonni may berib mast qildi. U uxlaganidan so'ng Suhayl bilan qochadi. Yurib keng cho'l-u biyobonga borib qoladilar. Natijada, Guldursun ochlikdan, ayniqsa, tashnalikdan darmoni quriydi. Bu vaziyatni muallif quyidagicha tasvirlaydi: Yo'q erdi suv, yemakka anda o'tmak. Agar bo'lganda ham aqchasi lak-lal. Suhayl suv va yegulik topib kelish uchun ketganda Guldursun "tashnalikdan qurigan ildiz" kabi joni uzilgandi. Agar Saroyi shu o'rinda oddiygina qilib: "Joni uzildi", - deganida, balki, misra bu qadar ta'sirchan va jozibali chiqmas edi. Bundan tashqari, dostonida "Uzulgan gul tekin tuproqda yotti", "O'zing gulshanda ko'rkli gul erursen", "G'azaltek silkinib qochdi parivash" so'zlarida obrazlar gulga, kiyikka tashbih qilinmoqda. Suhayl bu holni ko'rib yorug' olam ko'ziga qorong'u ko'rindi. U: "Menga yaxshi yor birla o'lmak, Na lozim g'am bilan dunyoda qolmak?", - deya o'ziga tig' uradi. Asar matnidan shu narsa anglashiladiki, Sayfi Saroyi o'tkir so'z ustasi sifatida ba'zi nuqtalarni tasvirlaganki, u kishi ruhiyatiga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Xususan, adib Suhayl o'zini-o'zi nobud qilgandan keyingi holatni quyidagicha yozadi: "O'lurmi sevgi ham bil, shundan ortiq, Ki ikkisi qilur jonini tortiq". "Suhayl va Guldursun" dostonida tashbih, mubolag'adan tashqari sifatlash ("Boshin egmish yotib oltun boshoqlar"); tashxis ("Sevinchi qora kiygan"); talmih ("Suhayl husni erur Yusufdin oliy", "Bo'lur oshiq ani ko'rganda Shirin", "Kelib ko'nglima Majnun, Layli yodi")ning ham go'zal namunalarini yaratdi. Mazkur dostonni xalq og'zaki ijodiga yaqinlashtirgan yana bir narsa-tush motivi. Xuddi "Kuntug'mish", "G'o'ro'g'li", "Alpomish" va hokazo dostonlarida bo'lgani kabi tush bu asarda muhim ahamiyat kasb etadi. Suhayl chohda yotganida Guldursunning kelishi uning tushida ayon bo'ladi. Bu tushda:

Bir pari bog'da yurarmish,
Yurib bog' ichra u gullar terarmish.
Deyub anga: "Suhayl, ne gul terursen,
O'zing gulshanda ko'rkli gul erursen?"...

Xulosa qilib aytish mumkinki, muallif Guldursun obrazi, uning xatti-harakatlari orqali jamiyatdagi ayollar erki, dovyurakligi masalasini ko'targan bo'lsa, Suhayl obrazi orqali sadoqat va vafoning o'lmas timsolini yaratishga erishdi. Agar Suhayl

Guldursun vafotini ko'rganidan keyin ham taqdiriga tan berib, yo'lida davom etganida hozirga qadar sadoqat ramzi bo'lib qolmas edi.

Dostonning oxirini muallif didaktik ruhda yakunlaydi:

Xotin sodiq,ani sevgil aziz er,

Har og'ir ishda ham doim seni der.

Unga do'st bo'l,uni sevgil,ko'ngil ber,

Uning so'z bahridin guvharlarin ter.

Demak, er kishi ayolini sevishi uchun u sodiq bo'lishi kerak degan hukm chiqarish mumkin. Inson bir-biriga har qanday vaziyatda ham sodiq bo'lishi kerak ekan. Muallif sodiq, vafodor kishi o'z yaqinini og'ir vaziyatda ham tashlab ketmasligi bilan mukofotlashini ta'kidlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.*
2. *Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: Sano-standart, 2017.*
3. *Asallayev A. Rahmonov V. Musurmonqulov F. Badiiy san'atlar. Toshkent: Tafakkur, 2015.*
4. *X. Davron kutubxonasi. <https://kh-davron.uz>.*